

## **KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR O'RTASIDAGI BULLING YA'NI ZO'RAVONLIKNI OLDINI OLISH MEXANIZMLARI.**

*Otamjanova Dilnoza*

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti*

*Namangan filiali*

*Boshlang'ich ta'limgan yo'naliishi*

*3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi bolalar o'rtasida uchrayotgan bulling holatlari, uning shakllari, sabablari va salbiy oqibatlari yoritilgan. Shuningdek, bullingni erta bosqichda aniqlash va oldini olish bo'yicha samarali pedagogik-psixologik yondashuvlar keltirilgan. Ijtimoiy muhitni yaxshilash, ota-onalar bilan jamoada hamkorlikni o'rnatish, bulling holatlarni tez va samarali bartaraf etish bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan .

**Kalit so'zlar:** bulling, kichik maktab yoshi, psixologik zo'ravonlik, profilaktika, sinf muhiti, o'qituvchi roli, ijtimoiy muhit, bartaraf etish

**Annotation.** This article highlights cases of bullying among younger school-age children, its forms, causes, and negative consequences. It also presents effective pedagogical and psychological approaches for early detection and prevention of bullying. Information is provided on improving the social environment, establishing cooperation with parents within the school community, and promptly and effectively addressing cases of bullying.

**Keywords:** bullying, early school age, psychological violence, prevention, classroom environment, teacher's role, social environment, elimination

**Annotatsiya.** В данной статье освещаются случаи буллинга среди детей младшего школьного возраста, его формы, причины и негативные последствия. Также представлены эффективные педагогические и психологические подходы к раннему выявлению и профилактике буллинга. Приводится информация об улучшении социального климата, установлении сотрудничества с родителями в школьном сообществе, а также о своевременном и эффективном устранении случаев буллинга.

**Ключевые слова:** буллинг, младший школьный возраст, психологическое насилие, профилактика, классная среда, роль учителя, социальная среда, устранение

### **Kirish.**

Mamalakatimizda sodir bo'layotgan mayda jinoyatchilik, bezorichilikni keltirib chiqayotgan sabablaridan biri bulling desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda

maktab muassasalarida ijtimoiy muhitning sog‘lom rivojlanishi ta’lim-tarbiya jarayonining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi bolalar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarda bulling holatlari kuzatilishi, bu muammoning dolzarbligini oshirmoqda. Kichik maktab yoshi — bu bolaning shaxsiyati shakllanishi uchun asos bo‘luvchi davr bo‘lib, bu bosqichda sodir bo‘ladigan har qanday zo‘ravonlik holati bolaga uzoq muddatli psixologik salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bullingga uchragan bola nafaqat psixologik zarba oladi, balki bиргина zoravonlik oqibatida butun bir kelajagini barbot qilishi mumkin. Aynan shu jarayonni bartaraf etish uchun pedagog hamda mактаб psixologlarini o‘rnı katta hisoblanadi.

### ***Bulling tushunchasi va uning shakllari***

Bulling — bu bolalar o‘rtasida muntazam takrorlanadiganjismoniy, og‘zaki yoki psixologik zo‘ravonlik harakatlari bo‘lib, odatda, kuchliroq bola yoki guruh tomonidan zaifroq bola yoki guruhga nisbatan amalga oshiriladi. Kichik mактаб yoshida bulling quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

- 1.Og‘zaki bulling: masxara qilish, laqab qo‘yish, haqoratli so‘zlar bilan murojaat qilish.
- 2.Ijtimoiy bulling: guruhdan ajratish, e’tiborsizlik qilish, do‘st tutmaslik.
- 3.Jismoniy bulling: urish, itarish, buyumlarini olib qo‘yish yoki buzish.
- 4.Kiberbulling: kichik yoshdagilar o‘rtasida kamroq uchraydi, ammo internet tarmoqlaridan erta foydalanish natijasida bu holat ham kuzatilmoqda.

### ***Bullingning sabablari:***

Kichik mактаб yoshidagi bolalar o‘rtasida bullingning yuzaga kelishiga quyidagi omillar sabab bo‘lishi mumkin:

- Oila muhitida zo‘ravonlik mavjudligi;
- Bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchhsizligi yoki o‘ta tajovuzkorligi;
- O‘qituvchi yoki ota-onaning yetarli darajada e’tibor bermasligi;
- Ijtimoiy tengsizlik va madaniy tafovutlar;
- Mактаб muhitining nazoratsizligi yoki tartibsizligi.

Bullingni oldini olish yo‘llari;

Bulling holatlarining oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Psixologik monitoring olib borish – har bir o‘quvchining hissiy holati va ijtimoiy munosabatlari doimiy kuzatuvda bo‘lishi lozim.

O‘qituvchilarning xabardorligini oshirish – pedagoglar bulling belgilarini erta aniqlash va unga to‘g‘ri munosabat bildirish bo‘yicha malakaga ega bo‘lishi zarur.

Sinf ichida do‘stona muhit yaratish – jamoaviy o‘yinlar, hamkorlikda bajariladigan topshiriqlar orqali bolalar o‘rtasida hurmat va do‘stlik hissini mustahkamlash.

Ota-onalar bilan hamkorlik – uyda va maktabda bolaga nisbatan bir xil, ijobiy tarbiyaviy yondashuv bo‘lishi lozim.

Axloqiy-ma'naviy tarbiya – darsdan tashqari mashg'ulotlar orqali mehr-oqibat, bag'rikenglik, hurmat kabi qadriyatlarni shakllantirish.

### *Tajriba (amaliy tadqiqot) qismi*

Ushbu maqola doirasida kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar o'rtasida bulling holatlarini aniqlash va ularning oldini olishga doir amaliy tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqot Namangan viloyatidagi umumta'lim maktablaridan birida 2–4-sinf o'quvchilari o'rtasida olib borildi. Unda jami 78 nafar o'quvchi va 6 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchisi hamda 52 nafar ota-onalar ishtirok etdi.

### *Tadqiqot maqsadi:*

1. Bulling holatlari mavjudligini aniqlash;
2. O'quvchilarning bir-biriga bo'lgan munosabati va sinfdagi ijtimoiy muhitni o'rghanish;
3. Bullingga qarshi samarali profilaktik ishlar samaradorligini baholash.

### *Tadqiqot metodlari:*

- So'rovnama (o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar uchun alohida shakllar);
- Psixologik diagnostika (Luscher testi, "Sinfidagi ijtimoiy holat" metodi);
- Ochiq kuzatuv va individual suhbatlar;
- Interaktiv mashg'ulotlar va treninglar.

### *Tadqiqotdan olingan natijalar:*

- ✓ So'rovnama natijalariga ko'ra, o'quvchilarning **27%** i sinfida doimiy yoki vaqtiga bilan bulling holatlari kuzatilishini bildirgan.
- ✓ O'qituvchilarning **83%** i bulling holatlarini o'z amaliyotida kuzatganini bildirgan, ammo faqat **42%** o'qituvchi bunday holatlarga qanday to'g'ri munosabat bildirish kerakligini aniq bilishini aytgan.
- ✓ Ota-onalarning **35%** i bolalarida maktabda psixologik bosim (masxara, laqab, bepisandlik) mavjudligini sezganini tan olgan.
- ✓ Psixologik test natijalari esa ayrim bolalarda xavotir, tajovuzkorlik va o'z-o'zini baholash darajasida pasayish mavjudligini ko'rsatdi.

### *Amaliy choralar:*

Tadqiqot davomida bullingni kamaytirish va ijobjiy sinf muhitini shakllantirish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

"Do'stlik haftaligi" loyihasi tashkil etildi. Bolalar har kuni ijobjiy munosabat, qo'llab-quvvatlash, hurmat mavzularida qisqa topshiriqlar bajardilar.

"Men va sinfdoshlarim" mavzusida psixologik trening o'tkazildi, unda bolalar o'z his-tuyg'ularini ifoda qilish, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalarini o'rgandilar.

Ota-onalar uchun "Bulling nima va uni qanday aniqlash mumkin?" mavzusida seminar-trening tashkil etildi.

Har bir sinf uchun “Ijobiy xulq-intizom kodeksi” ishlab chiqildi va sinfda osib qo‘yildi.

*Tajribaning yakuniy natijasi:*

O‘tkazilgan amaliy chora-tadbirlar natijasida bulling holatlarining soni sezilarli darajada kamaydi. Bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda iliqlik, hamkorlik, hurmat kabi jihatlar kuchaydi. O‘qituvchilar va ota-onalarning masalaga nisbatan xabardorligi oshdi. Bu esa bullingning oldini olishda tizimli yondashuv muhimligini yana bir bor isbotladi.

### **Xulosa**

Kichik maktab yoshidagi bolalar o‘rtasida bullingni oldini olish nafaqat pedagoglarning, balki ota-onalar va jamiyatning umumiy mas’uliyatidir. Bu jarayonda eng muhim jihat — bolani tinglash, unga nisbatan e’tiborli bo‘lish va har qanday ijtimoiy muammoni erta bosqichda hal etishdir. Bulling holatlarini erta aniqlash va unga qarshi tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish orqali sog‘lom ijtimoiy mакtab muhitini yaratish mumkin. Bulling oqibatida jabr chekayotgan bolalarni hayotga qaytarish, ularni menligini shakllantirish, o‘z fikrini erkin bayon qilish, qobilyatlarni shakllantirish bu pedagogning asosiy vazifasi hisoblanadi. Zero o’sib kelayotgan yosh avlodlarning kelajagi bizning qo‘limizda!

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimova L.M. “Bola psixologiyasi” – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. G‘ofurov N.G. “Pedagogik psixologiya asoslari” – Toshkent, 2020.
3. Olweus D. “Bullying at School: What We Know and What We Can Do” – Blackwell Publishing, 1993.
4. Xamidov A.A. “Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiy moslashuvi” – Toshkent, 2022.
5. UNICEF O‘zbekiston. “Maktabda xavfsiz muhit yaratish bo‘yicha qo‘llanma” – 2023.